

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»



**MANBASHUNOSLIK VA
TARIXSHUNOSLIK
faninig
O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi: 200 000 – San'at va Gumanitar fanlar
- Ta'lif sohasi: 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
- Ta'lif yo'nalishi: 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)

Guliston – 2023

Fan/modul kodi SHTB208	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 8	
Fan modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi Manbashunoslik va tarixshunoslik	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama
		120	120	240

I. Fanning mazmuni

1.1. **Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarda manbashunoslik va tarixshunoslikning vazifasi, predmeti va obyekti, tadqiqot va manbalarning turlari va tadqiqotlar natijalarini jamlash, manbashunoslikning nazariy masalalarini, manbalarni ichki va tashqi tahlil qilishni hamda, manbalarni har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

1.2. **Fanning vazifasi** – talabalarga manbalar va tarixiy tadqiqotlarning manbashunoslikdagi va tarixshunoslikdagi o‘rnii, tarix bilimini targ‘ib qilishning shakllari, O‘rtal Osiyo xalqlarining tarixi bilan bog‘liq manbalar haqida umumiy ma’lumot olish, ta’lim jarayonida manbalar va ilmiy tadqiqotlardan kichik ilmiy ishlarida foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-MODUL. MANBASHUNOSLIK.

1-mavzu. Manbalarni turkumlash. Manbalarni o‘rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilish.

Tarixiy tadqiqot uchun manbalarni turkumlashning ahamiyati. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlarga bo‘linishi. Yozma manbalar. Yozma manbalarning asosiy xillari. Adabiy manbalar. Aktlarga oid hujjatlar. Arxiv manbalari. Normativ va ijroiya hujjatlar. Jamoat tashkilotlari hujjatları tarixiy manba sifatida. Diplomatik hujjatlar, memuarlar, davriy matbuot.

Manbashunoslik sohasidagi tadqiqot. Manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariiga qarab tahlil qilish. Manbalarni umumiy tafsiflash va alohida bir manbani tadqiq etish. Matnni aniqlash. Asl manba. Manba yozilgan davr va joy, unda tarixiylikning in’ikosi. Manbaning yaratilish tarixi shart-sharoit va undaga tarixiy haqqoniylig mezon. Asl manbadan ko‘chirilgan nushalar. Nushalarning asl manbaga yaqinligini anqlash muammolar.

2-mavzu. O‘rtal Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o‘rtal asr yozma manbalari.

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rustam, Doro I, Ayrithom bitiklari). Avesto – qadimi yozma yodgorlik; Avestoda O‘rtal Osiyo tafsifi. Qadimgi Hind manbalarida O‘rtal Osiyo haqida ma’lumotlar. Qadimgi Yunon va Rim mualliflari asarlari O‘rtal Osyoning qadimgi davr tarixiga oid muhim manba: Gerodot, Diodor, Aristotel, Pompey Trog, Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Gay Pliniy, Plutarx, Polibiy, Strabon, Klavdiy

Ptolemy asarlari. Xitoy solnomalari O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qadimgi manba sifatida. Xou-Xan-shu («Keyingi Xan sulolasi tarixi»), Bey-shu («Shimoliy sulolalar tarixi»), Suy-shu («Suy xonadoni tarixi») va b. Qadimgi turkiy manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. Run bitiklari: Lena-Baykalbo'yi, Yenisey, Mongoliya, Oltoy, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyodan topilgan bitiklar (Tunyuquq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga xoqon bitigi, Ongin bitigi va b.).

Sug'd hujjatlari o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manba. Mug' qal'asidan topilgan hujjatlari, Afrosiyobdan topilgan sug'd hujjatlari, SHarqiylar Turkistondan topilgan sug'd hujjatlari va boshqalar.

3-mavzu. Arab yozuvidagi (arab, fors, turkiy tillardagi manbalar) Sharq qo'lyozmalari xazinalari.

Arab yozuvidagi dastlabki manbalar tarixidan. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari; hadislar va ularning sharhlari; Muhammad payg'ambar va xalifalar hayotiga oid asarlar. Fiqhga oid manbalar. Arab tilida yozilgan turli fan sohalariga oid manbalar (filologiya, lug'atlar, filosofiya, medisina, geografiya). Arab tilidagi tarixiy asarlar (al-Madoiniy, Tabariy, al-Balazuriy, al-Ya'qubiy, Beruniy asarlari). Fanlar tasnifiga oid asarlar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh al-Xorazmiy). IX-XIII asrlar davomida arab tilidagi manbalarning ko'payishi. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Arab yozuviga o'tish bosqichlari. Forsiy matnlardagi xat turlari. Xattotlik kasb sifatida. Forsiy yozma merosning ko'payib borishi. Eng qadimgi forsiy qo'lyozmalar. Bizgacha yetib kelgan fors yozma meros (Tarjimayi "Tarixi Tabariy", Hudud-ul-olam, Jahonna, "Zayn-ul-axbor" Gardiziy asari; Firdavsiy "Shoxnoma").

Arab yozuvidagi turkiy yozma meros. Turkiy yozma merosning ko'lami. Turkiy tillardagi yozma merosning shakl jihatdan tarkibi; nazmda yozilgan asarlar, islomga oid asarlar, tarjima asarlar (arab va forsiy tillardan), sharhlari. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozma asarlarning miqdoriy ko'rsatkichlari (jahon qo'lyozma xazinalaridagi salmog'i). Turkiy qo'lyozmalarining mazmuniy tarkibi: tarix, xronologiya, yozishmalar, biografiya, shajara, geografiya, bibliografiya, astronomiya, ensiklopediya, medisina, falsafa, etika, matematika. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozmalarining tashqi belgilariga qarab bo'linishi. Turkiy qo'lyozmalar - "Qutadg'u bilik", "Tarixi muluki ajam", Qur'on tafsirlari, "Qisasi Rabg'uziy". "Shayboniynoma", "Tavorixi guzida" asarlari.

Qo'lyozma asarlar va ularning hududiy qamrovi. Arab tilidagi yozma meros va uning tarqalishi. Qo'lyozmalarining jahon bo'ylab tarqalish sabablari. Sharq qo'lyozmalarining Yevropaga tarqalishi. Sharq qo'lyozmalarining turli mamlakatlardagi miqdoriy ko'rsatkichi. Qo'lyozmalar xazinalari: Misr, Eron, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, O'zbekiston. Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash va kataloglar chop etilishi tarixidan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasi haqida umumiy ma'lumotlar.

4-mavzu. O'rta Osiyoning IX – XII asrlar iarixiga oid yozma manbalar. Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalar.

O'rta Osiyo tarixi aks etgan IX-XV asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalar: al-Madoiniy «Axbor al-xulafo», al-Ya'qubiy «Kitob al-buldon», Balazuriy «Kitob futuh al-buldon», Tabariy «Tarix ar-rusul va-l-muluk», Ibn Fadlon «Risola», al-Mas'udiy «Muruj», Abu az-zahab», Utbiy «Tarixi Yaminiy», Abu Abdulloh al-Xorazmiy «Mafotih al-ulum», Abu Rayhon Beruniy «Osor al-boqiya», Mahmud Qoshg'ariy «Devonu lug'at at-turk», Sam'oniy «Kitob al-ansob», Ibn al-Asir «Al-Komil fi-t-tarix», Yoqut Hamaviy «Mu'jam al-buldon», «Sirat as-sulton Jaloliddin», Jamol Qarshi «Mulhaqat as-surog». O'rta Muhammad Nasaviy «Sarat as-sulton Jaloliddin», Jamol Qarshi «Mulhaqat as-surog».

Osiyo IX-XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy «Buxoro tarixi», «Hudud ul-olam», Nizomulmulk «Siyosatnama», Nizomi Aruzi Samarcandiy «Chor maqola», Gardiziyy «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiy «Tarixi Mas’udiy», Avfiy «Javomi’ al-hikoyot», Juvayniy «Tarixi jahongushoy», Rashiduddin «Jome’ at-tavorix», Hamdaloh Qazviniy «Tarixi guzida». Temuriylar sultanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar: Nizomiddiy Shomiy «Zafarnoma», Muiniddin Natanziy «Muntaxab at-tavorix», Sharafiddin Ali YAzdiy «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarcandiy «Matla as-sa’dayn», Mirxon «Ravzat as-safo» va boshqa asarlardagi ma'lumotlar.

5-mavzu. O'rta Osiyoning XVI –XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalar.

O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid manbalar fors-tojik tilida bitilgani. Mulla Shodiy "Fathnoma", Fazlulloh ibn Ruzbexon "Mehmonnomai Buxoro", Xondamir "Habib as-siyar", Zayniddin Vosifiy "Badoe' ul-vaqoe'", Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy", Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma", Mahmud ibn Valiy "Bahr ul-asror", Hoja Samandar Termiziy "Dastur al-muluk", Muhammad Yusuf Munshiy "Tarixi Muqimxoniy", Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma", Abduraxmon Davlat "Tarixi Abulfayzxon", Mir Muhammad Salim «Silsilat as-salotin», Muhammad Vafo Karminagiy «Tuhfai xoniyy», Mir Olim Buxoriy «Fathnomayi sultoniy», Axmad Donish «Navodir al-vaqoe'», Abduazim Somiy «Tarixi salotini mang‘itiya», Mirzo Salimbek «Tarixi Salimiyy», Muhammad Solih «Tarixi jadidayi Toshkand», Niyoz Muhammad Xo‘qandiy «Tarixi Shohruxiy». O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalar: anonim «Tavorixi guzida» («Nusratnama»), Muhammad Solih «Shaybonynoma», Zahiriddin Bobur «Boburnoma», Abulg‘ozzi Bahodurxon «Shajarayi tarokima», «Shajarayi turk va mo‘g‘ul», Munis va Ogahiy «Firdavs ul-iqbol», Mirzo Olim Toshkandiy «Ansob as-salotin» asarlari.

6-mavzu. XVII–XVIII asrlar rus va Yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi.

O'rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan Yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar: Sayyoh va elchilar Marko Polo, Rui Gonsales de Klavixo va Antonio Jenkinson kundaliklari. XVII-XVIII asrlar rus va Yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi: I.D.Xoxlov ma'lumotlari; «Kniga Bolshomu cherteju»; B.A.Pazuxin va S.I.Pazuxin ma'lumotlari; Florio Benevini axboroti; V.N.Tatishev «Leksikon geograficheskoy i politicheskoy»; D.Gladishev va Muravin ma'lumotlari; F.Efremov safarnomasi, T.Burnashevning O'rta Osiyoga safari xotiralari; F.Nazarov safarnomasi; N.Muravyev ma'lumotlari; E.K. Meyendorf safarnomasi.

7-mavzu. O'rta Osiyo tarixiga oid Rossiya sharqshunoslari tadqiqotlari manba sifatida. Yevropa tillaridagi yozma manbalar.

"Aziatskiy vestnik" materiallari. "Turkiston arxeolog havaskorlari to‘garagi" kabi ilmiy jamolar tomonidan muntazam nashr etilgan to‘plamlar va boshqalarda e’lon qilingan maqolalar. Rossiya sharqshunoslari tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda O'rta Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan istilo qilinishi, Turkiston general-gubernatorlitining tashkil etilishi tarixi.

8-mavzu. O'zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar.

Rossiyadagi sevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar. Oktyabr voqealaridan keyin Turkistonda Sho‘rolar hukumati tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog‘liq manbalar. Sovet hokimiyatining dekretlari. Sovetlar syezdalarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari manba sifatida. Turkistonda

muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakati tarixiga oid hujjatlar tarixiy manba sifatida. O‘rtalik Osiyoda milliy chegaralash tarixiga oid hujjatlar. O‘zbekistonning 1925-1941 yillardagi tarixini yorituvchi manbalar; qatag‘onlar tarixi aks etgan hujjatlar. 1941-1945 yillar urushi tarixiga oid materiallar. O‘zbekistonning 1945-1991 yillardagi tarixiga oid hujjatlar. Statistik to‘plamlar. Ish yuritish hujjatlari. O‘zbekistonning XX asr tarixiga oid muhim tarixiy manba sifatida.

2-MODUL. TARIXSHUNOSLIK.

9-mavzu. Kirish. Tarixshunoslik fani va uning vazifasi.

Tarix fanining vujudga kelishi va o‘tmishnn o‘rganishdagi dastlabki malakalar. Tarix fanining tarkibiy qismlari. Tarix bilimlarini rivojlanishi va o‘zgarishlarini aniqlovchi omillar. Tarix fanidagi izchillik. Tarix fanidagi maktablar.

«Tarixshunoslik» atamasi. Tarixshunoslikning obyekti va predmeti. Tarixshunoslik tarix fanining maxsus sohasi va o‘quv fani sifatida. Tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari.

Tarixshunoslikda tadqiqotlarning qilish uslullari. Qiyosiy tarixiy usul. Aniq tahliliy usul. Mantiqiy tahliliy usul. Xronologik usul. Davriylashtirish usuli. Retrospektiv tahlil. Tadqiqotlarda mavzuning o‘rganilish darajasini tadqiq qilish. Tadqiqotlarni davrlashtirish.

XX asrning 90-yillarda O‘zbekiston tarixshunoslik fani rivojida yangi davrning boshlaiishi. Nazariy-metodologik masalalarining ishlab chiqilishi. Ilmiy maktablarning shakllanishi. O‘zbekistonda tarixshunoslik fani va tarix fanidagi metodologiyalar. Mustaqillik davridagi o‘zgarishlar. Fanlar akademiyasi Tarix instituti tarix fani metodologiyasini va tarix fani kontseptsiyasini ishlab chiqarishdagi roli.

10-mavzu. O‘zbekistonda qadimgi davr tarixining o‘rganilishi.

O‘zbekistonning qadimgi davr tarixshunosligi. O‘zbekistonning qadimgi davr tarixi haqida umumiy ma’lumot, uning o‘ziga xos tomonlari. O‘zbekistonning qadimiyligi tarixiga oid arxeologik tadqiqotlar. Qadimgi davr tarixiga oid numizmatik tadqiqotlarni o‘rganish.

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rustam, Doro I, Ayritom bitiklari)ning o‘rganilishi. Avesto, Qadimgi Hind manbalariga doir tadqiqotlar.

O‘rtalik Osiyo haqidagi antik davrda yaratilgan asarlarining tadqiq etilishi.

11-mavzu. O‘zbekistonda o‘rtalik asrlar tarixining o‘rganilishi.

Sharq qo‘lyozmalari va ularning dunyo sivilizatsiya tarixidagi o‘rni. O‘rtalik asrlar tarixnavisligining xalq ijodiyoti, an‘analari bilan uzviy bog‘liqligi. Arab, fors, yunon va turk tilidagi qo‘lyozmalar va ularning tarix fanining rivojlanishidagi o‘rni.

O‘rtalik asrlarda yaratilgan asarlarning tarixshunoslik jihatidan tahlili. O‘rtalik asrlarda tarixnavislik maktablaridagi an‘analalar. O‘rtalik asrlarda yaratilgan tarixiy asarlarning o‘rganilishi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida sharqshunoslar tomonidan qadimgi va o‘rtalik asrlar tarixining o‘rganilishi. XX asrda qadimgi va o‘rtalik asrlar tarixining yoritilishi. Mustaqillik yillarida qadimgi va o‘rtalik asrlar tarixiga oid tadqiqotlar.

12-mavzu. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi.

Tadqiqotlarda Amir Temur shaxsi va uning siyosiy faoliyati masalalarining yoritilishi. “Temur tuzuklari”ning o‘rganilishi. Mirzo Ulug‘bek va Zahridtsin Muhammad Boburning ilmiy merosining o‘rganilishi. Tarixning turli davrlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishga bo‘lgan munosabat.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va

madaniy hayoti masalalarining yoritilishi. Temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlarning o'rganilishi.

Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi. Temurshunos olimlarning ilmiy faoliyati. Xorijiy davlatlarda temuriylar davriga oid tadqiqotlar.

13-mavzu. XVI – XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari tarixshunosligi

O'rta Osiyoda mahalliy tarixnavislikning shakllanishi va asosiy yo'nalishlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari. Tarixiy tadqiqotlardagi yondoshuvlar.

XVI-XIX asrning birinchi yarmida Yevropada O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar. O'rta Osiyo xonliklarining tashkil topishi, ma'muriy hududiy tuzilishi, boshqaruv tizimi, hukmron sulolalar. Xonliklar tarixining asosiy bosqichlari. Rossiya imperiyasining Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklariga harbiy tajovuzi, Qo'qon xonligining tugatilishi. Buxoro va Xiva xonliklari siyosiy qaramlik davrida.

Vatan tarixshunosligida O'rta Osiyo xonliklarnni o'rganishning asosiy bosqichlari. Tarixiy tadqiqotlarda xonliklar haqidagi bilimlarning aks etishi va ularga hukmron tuzum ta'siri.

Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklar tarixiga yangicha yondoshuvlar va ularning nazariy-kontseptual, metodologik asoslari. Mustaqillik davri tarixshunosligida xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy va tashqi aloqalari tarixiga oid tadqiqotlar. O'rta Osiyo xonlari diplomatik yozishmalarining o'rganilishi va ularning ayrim xususiyatlari. Xonliklarlagi harbiy siyosat va qo'shinlar tarixi. Shaharlar tarixining o'rganilishi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot masalalarining o'rganilishi.

14-mavzu. XIX – XX asrning boshlarida O'rta Osiyo tarixining o'rganilishi.

Sharqshunoslarning O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar tarixi, etnografiyasi, epigrafikasi va numizmatikasiga oid tarixiy asarlari. XIX-XX asrning boshlarida yaratilgan tarixiy-etnografik asarlar.

Sharqshunoslarning O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidai bosib olinishi masalalarining o'rganilishi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri tarixshunosligi. Davriy matbuotda xonliklar hayotiga oid ma'lumotlar. "Turkestanskiy sbornik" va statistik tadqiqotlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari haqidagi ma'lumotlar.

Turkistonda bolsheviklar hukmronligi va uning xonliklarga ta'siri. Buxoro va Xiva xonliklarining tugatilishi. Jadid mutafakkirlarining tarix, tarix fani va ta'limi hamda tarixshunoslik haqidagi dunyoqarashlari.

15-mavzu. Sovet davrida O'zbekistonda tarix fani.

Sovet davri tarixshunosligining o'ziga xos xususiyatlari va nazariy kontseptual asoslari. Sovet davri tadqiqotlarida O'zbekiston tarixini bir yoqlama talqin etilishi. XX asrning 20-30 yillarda tarix fani. O'zbekistonda ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarining tarixchi mutaxassislarni tayyorlashdagi o'rni. Tarix institutining tashkil etilishi. Tarix fakultetlari va kafedralarining ochilishi O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil etilishi.

O'zbekistonda sharqshunoslik. Sharqshunoslarning tarixshunoslikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi.

O'zbekistonda arxeologiya va etnografiyaga oid tadqiqotlar. Arxeolog va etnograflarning tarix fanining rivojlanishiga qo'shgan hissasi. O'rta Osiyolik allomalarining fan tarixi, madaniyat, O'rta Osiyo xalqlari san'atiga oid qo'lyozma manbalarini, ilmiy merosining o'rganilishi.

O'rta Osiyo xalqlarining xorijiy mamlakatlar bilan tarixiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarining o'rganilishi.

16-mavzu. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi.

Tarix fanida yangi dunyoqarashlar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish» haqidagi (1998 yil) qarori.

1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi huzurida "O'zbekistonning yangi tarixi" markazi tashkil etilishi. Markaz olimlari tomonidan 3 jildli "O'zbekiston tarixi" kitobining nashr etilishi.

Tarix institutining ilmiy faoliyati. Tarixchilar tomonidan davriy, ilmiy, ilmiy-ommabop to'plamlarning nashr etilishi. Ilmiy anjumanlar va ularda o'zbek davlatchiligi tarixi masalalarining yortilishi. Zamonaviy arxeologiya, etnografiya va manbashunoslikning vazifalari.

Og'zaki tarix. Tarixga bag'ishlangan ilmiy jurnallarning O'zbekiston tarixning yoritishdagi o'rni.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Manbashunoslik fanining maqsadi, vazifalari, ahamiyati.
2. Manbalarni turkumlash.
3. Manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilish.
4. O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi va ilk o'rta asr yozma manbalar (arab yozuvigacha).
5. Arab yozuvidagi (arab, fors, turkiy tillardagi) manbalar.
6. Sharq qo'lyozmalari xazinalari.
7. O'rta Osyoning IX-XII asrlar tarixiga oid yozma manbalar.
8. O'rta Osyoning XIII-XIV asrlar tarixiga oid yozma manbalar.
9. O'rta Osyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalar.
10. O'rta Osiyo tarixiga oid rus va Yevropa tillaridagi yozma manbalar.
11. O'zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar.
12. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillardagi tarixiga oid manbalar.
13. Tarixshunoslik fani va uning vazifasi.
14. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osyoda tarix fani.
15. IX-XII asrlarda O'rta Osyoda tarix ilmining rivojlanishi.
16. XII-XIV asrlarda O'rga Osyoda tarix ilmining rivojlanishi.
17. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi.
18. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo tarixshunosligi.
19. XIX-XX asrning boshlarida Sharq va O'rta Osyoning o'rganilishi.
20. Sovet davrida O'rta Osyoda tarix fani.
21. O'rta Osiyo xalqlarining xorijiy mamlakatlar bilan tarixiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarining o'rganilishi.
22. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi.
23. O'zbekistonda tarixshunoslik fanining alohida soha sifatida rivojlanishi.
24. Tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi.
25. Zamonaviy tarixshunoslik va istiqboldagi vazifalar.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Manbashunoslikning fan sifatida rivojlanishi.

2. Tarixiy, nazariy va amaliy manbashunoslik.
3. Manbashunoslik sohasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
4. Yozma manbalarning asosiy xillari.
5. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgai dastlabki manbalar.
6. O'rta Osiyo xonliklari tarixi xorijiy tarixshunoslikda.
7. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar.
8. Mustaqillik yillarida O'zbek davlatchiligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarning olib borishi.
9. XIX-XX asrning boshlarida Rossiya olimlari tomonidan O'rta Osiyoning o'rganilishi.
10. Mustaqillik yillarida O'rta Osiyo xonliklarida tarixining o'rganilishi.

V. Fan o'qitilishining natijalari(shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- manbalarni turkumlashdagi asosiy tamoyillar, manbashunoslik va tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari, muammoviy tarixshunoslik masalalari, tadqiqotlarning metodologiya masalalari, og'zaki tarix, muammoviy tarixshunoslik, O'rta Osiyoning tarixiga oid manbalar va tadqiqotlar, Mustaqqilik yillarida O'zbekistonda tarix fanidagi **tadqiqotlar haqida bilishi kerak;**
- O'rta Osiyo tarixiga oid xorijiy tillardagi yozma manbalarni tahlil qilish, O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi tarixiga oid manbalarni o'rganish, arab yozuvidagi dastlabki manbalarni tadqiqot ishlarida qo'llay olish, manba va tadqiqotlarni mazmuniga ko'ra guruhlarga bo'la olish, tadqiqotlarda mavzuning o'rganilish darajasini tadqiq qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**
- tarix fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, manbashunoslik va tarixshunoslikning predmeti, ob'ekti va vazifalarini farqlay olish, nazariy manbashunoslik, amaliyotda tarixiy manbalarning va tadqiqotlarning asosiy turlarini ajrata olish, manbalarni o'rganish, aniqlash, tahlil qilishga oid **malakalarga ega bo'lishi kerak.**

VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;

VII . Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelishi va o'qituvchining og'zaki suhabatidan o'tishi zarur. Qoldirilgan ON va YaN lar belgilangan tartib bo'yicha topshiriladi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxona da mavjud nusxasi
1.	Мадраимов А., Фузаилова У. Тарихий манбашунослик. Ўқув кўлланма. –Т.: Фан, 2010.	2
2.	Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: 2001	5
3.	Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси – Т: 1996.	10
4.	Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти – Т., 2003	20

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxona da mavjud nusxasi
1.	Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. - Т.: “Ўзбекистон”, 2021.	20
2.	Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишлиган тантанали маросимдаги маъруза. 2021 йил 7 декабр /Ш.М. Мирзиёев. - Т.: “Ўзбекистон”, 2021.	20
3	Мирзиёев Ш.М. Буюқ келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон , 2021.	20
5	Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2021 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2021 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. - Т.: “Ўзбекистон”, 2021.	20
6	Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т. I. История и историческое сознание. – Т.: Ўзбекистон, 2008.	5
7	Ахмеджанов Г.А. Российская империя в Средней Азии. История и историография колониальной политики царизма в Туркестане (1867- 1917).-Т.:Фан, 1995.	2
8	Бўриев. О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т.: 1997.	5
9	Илҳомов З. Тарих фани методологияси. – Т.: 2013.	5

Axborot manbalari

1. www.akademik.ru
2. www.history.ru
3. www.literatura.ru

4. www.kutubxona.uz

Fan dasturi GulDU Kengashining 2023 yil 30-avgustdagি 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul uchun mas'ular:

U.Alibekov – “Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi

SH.K.Ma’rufov – “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

B.B.To‘ychiboyev – GDPI “Ijtimoiy fanlar va San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

O.Sh.Kanimkulov – GDPI “Ijtimoiy fanlar va San’atshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)